

BADIIY TA'LIMDA QALAMCHIZGILARNING AHAMIYATI

Oltmishev Toxirjon Turgunovich

A.Qodiriy nomidagi JDPU katta o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail: oltmishevtohir@gmail.com

***Annotasiya.** Xomaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umulashtirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniladi. Shuning uchun o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmni boshlashdan avval o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng kerakli joyni tanlab olgandan so'ng asosiy ishga kirishishni maslahat beradilar. Chunki, xomaki rasm muvoffaqiyat bilan topilganda naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

***Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, xomaki, qalamchizgi, akademik, natura, natyurmort, rasm.*

***Аннотация.** Эскизные рисунки Перед началом учебного задания всегда используется обобщенное изображение природы, то есть эскизный рисунок, при размещении учебного рисунка в композиционном плане. Поэтому педагоги в учебных заведениях советуют учащимся перед началом академического рисунка делать карандашные рисунки природы с разных точек, а после выбора подходящего места приступать к основной работе. Потому что при удачном нахождении контурного рисунка расположение всей массы природы может служить основой непрерывного учебного рисунка.*

***Ключевые слова:** Изобразительное искусство, этюд, карандашный рисунок, академический, натура, натюрморт, живопись.*

***Annotation.** Sketch drawings Before starting an academic task, a generalized image of nature, that is, a sketch drawing, is always used in the compositional arrangement of an educational drawing. Therefore, pedagogues in educational institutions advise students to make pencil drawings of nature from different points before starting an academic drawing, and after choosing the right place, start the main work. Because, when the outline drawing is successfully found, the location of the entire mass of nature can serve as the basis of a continuous educational drawing.*

***Keywords:** Fine art, sketch, pencil drawing, academic, nature, still life, painting.*

Qisqa muddatli o'quv va xomaki rasmlar chizish.

Xomaki rasm – odatda qisqa, ba'zan esa juda qisqa va o'ta cheklangan vaqt davomida, ko'p hollarda rasm chizuvchining o'ziga boqliq bo'lmagan xolatlarda

bajariladigan predmet dunyosining umumlashtirilgan to'liqsiz tasviridir. Bunda ishni tezlashtirish maqsadida eng kam grafik vositalardan foydalaniladi.

Murakkab shaklni faqat uning asosiy, mayda ikir - chikirlarsiz tipik va o'ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmet dunyosining realistik tasvirini umulashtirilgan, deb hisoblamoq kerak. Shuning uchun ham xomaki rasm ko'p hollarda "yaxlit, ko'zga ko'rinib turgan predmetning qism, bo'lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi".

Homaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umulashtirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniladi. Shuning uchun o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmni boshlashdan avval ukuvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng kerakli joyni tanlab olgandan so'ng asosiy ishga kirishishni maslahat beradilar. Chunki, xomaki rasm muvoffaqiyat bilan topilganda naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Chizgi – xomaki rasimga nisbatan ancha to'liq hisobdanadi. Lekin ba'zi hollarda u davomli o'quv rasimga qaraganda ancha qisqa vaqt oraliqida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo'lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishlash vaqtini odatda rasm chizuvchining o'zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga ko'yadigan talablariga boqliqdir.

Naturadagi chiziladigan chizgi xuddi xomaki rasmning detallar bilan boyitish kabidir. Naturaning qay holda yuzaga chiqarilishiga qarab chizgi xomaki rasm bilan davomli rasm o'rtasidagi oraliq bir vosita bo'lib qoladi. Boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, naturadan chizilgan xomaki rasm ishida o'sha naturadan davom ettirilgan ish sekin-asta chizgiga aylanishi mumkinki, bunda rasm ikir-chikirlariga batafsilroq to'xtaladi.

Xomaki rasm bilan chizgi o'rtasidagi farq u yoki bu rasmni chizish uchun sarflanadigan vaqtdangina emas, balki asosan ish usulining o'zidan ham iboratdir. Chizgi boshidan oxirigacha naturadan chizish orqali bajariladi. Xomaki esa nafaqat

naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan, idrokdan, shuningdek, barcha usullarni ham qo‘llab chizilishi mumkin.

Xomaki rasmlar ijrosining aynan shu hildagi usullari keyinchalik nafaqat umuman rasm chizishga o‘rgatish, balki yuqorida aytib o‘tilgan bo‘lajak rassom uchun zarur bo‘lgan sifatlarni yiqindisini tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xomaki rasm va chizgilarga o‘rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo‘llaniladigan shaklan yaqin bo‘lgan (yoki mazmunan shu kabi) obyektlardan foydalaniladi:

- 1) «o‘lik» (tirik bo‘lmagan) natura, (natyurmort)
- 2) o‘simliklar,
- 3) hayvonlar,
- 4) inson.

Ta‘lim uslubiyotini qisqa muddatli rasmlarda qurish uchun, ya‘ni o‘quv mashg‘ulotlari izchilligi va mazmuni va ularni hal qilish usullarini belgilab olish uchun har xil xomaki rasmlar ijrosining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunib yetish kerak, va birinchi navbatda, qisqa muddatli rasmlar ijrosi bilan (xomaki va chizgilar) davomli rasmlar ijrosi usullarida o‘rtasidagi farq nimadan iborat ekanligini bilib olish zarur.¹


Qalamtasvir bu biror bir buyum yoki bizni o‘rab turgan jamiki narsalarni oddiy grafit qora qalamda tasvirlanishidir. Tasviriy san‘atning qasbi turi bo‘lmasin eng avvalo qalamtasvirga murojat qiladi. Yaratilajak badiiy asrni ijodkor qo‘liga oddiy qora qalamni olishdan boshlaydi. Bu bo‘lishi mumkin rassom, xaykaltarosh, amaliy san‘at ustalari, ishlab chiqarishdagi barcha soha dizaynerlari, arxitektorlar qo‘yingki yaratish ishtiyoqida faoliyat olib boruvchi barcha ijodkorlardir. Uzoq muddatli o‘quv qalamtasvirlari ishlashdan oldin qisqa muddatda ishlanadigan qoralamalardan boshlanadi, **qoralama bu-(croquet-fransuzcha, Entwurf-nemischa, sketch-inglizcha, nabroska-rus)** degan ma‘nolarni anglatadi -1-2 daqiqadan yarim soatgacha vaqt oralig‘ida ishlanadigan qalamtasviridir. Qoralama

¹ B.Boymetov .Qalamtasvir Toshkent -2006

bo'lg'usi pedagog rassomga kuzatuvchanlikni, ko'zda chamalashni va chizilayotgan narsa buyumlarni bir butun xolda eng xarakterli joylarini ko'rishni o'rgatadi. Xatto eng qisqa muddatda chizilgan qoralama ham o'sha buyum to'g'risida to'liq ma'lumot berishi kerak. Qoralama ishlab fikrni bayon qilishda ya'ni tasvirlashda chiziqlar asosiy vosita xisoblanadi, chiziqlarda tasvirlashning katta imkoniyatlari mavjud. Shtrixlarsiz faqat chiziqlar bilan har qanday ko'rinish va xajmni fazoviy xolatini ko'rsatib berish mumkin bo'ladi. Bu qanday amalga oshiriladi, demak tasvirlashning bir qancha o'ziga xos qoidalari mavjudligini esga olishimiz kifoya qiladi; yorug'-soya munosabati, planlar shular julasidandir faqat chiziqlar orqali naturadan ya'ni narsani o'ziga qarab tasvirlashda yorug'lik tushib turgan joylariga chiziqni qalamni uchi bilan ingichka qilib tortish kerak gohida esa chizilmasa xam bo'ladi. Soya joylarga esa aksincha qalamni biroz yotqizib qalinroq chizish shu erda soya borligini belgilaydi, xamda tasvirlashdagi planlar xam paydo bo'ladi. Demak oldingi planlarga qalinroq va to'qroq, aksincha yorug' va orqa planlarga esa ingichkaroq, yorug'roq chiziqlar tortish lozim. Qoralama chiziqli, shtrixli, dog'lar orqali tasvirlash usillari mavjud (1,2,3,4,5 rasmlar).



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



5-rasm

Qoralama ishlash bilan bir qatorda (**zarisovka ya'ni xomaki ishlar**) bajarish ham tavsiya etiladi. Xomaki ish qoramadan mukammalroq bo'lib yarim soatdan ikki soat oralig'ida bajariladi. Xomaki ish va qoramani har kuni, hamma joyda

chizishingiz kerak buning uchun yoningizda cho'ntak albomi va qalam bo'lishi lozim. Xomaki ish va qoralamani bajarishga bizga yumshoq qalam, ko'mir tayoqcha, sangina, flamaster, ruchka, tush pero va mo'yqalamlar kerak bo'ladi. Ko'z bilan chamalab chizishni o'rganishda nafaqat qoralama va xomaki rasmlar chizib yurish talab etiladi vashu bilan birha atrof muhitni doimiy ravishda kuzatib yurish ham yaxshi samara beradi. Qanday kuzatiladi kuzatishda nimalarga e'tibor qaratish kerak. Kuzatish jarayonida diqqat bilan bizni o'rab turgan narsa buyumlarning bir –biriga nisbatan katta kichikligi, rang tuslari, och-to'qligi, bizga nisbatan uzoq-yaqinligi, yorug'-soya munosabatlari kabilarga e'tibor va diqqatni qaratamiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Botir Boymetov. Qalamtasvir-Musiqqa nashryoti-Toshkent 2006.
2. Барщ А.О. Наброски и зарисовки. М., 1970.
3. Ростовцев Н.А. Академический рисунок. М. 1984.
4. Internet manbasi. <https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakie-byvayut-karandashi-dlya-risovaniya/>.